



XOSIYAT RUSTAMOVA SHE'RIYATIDA VATAN TASVIRI
EVOLYUTSIYASI

Zakirova Gulchehra Baxramovna

Namangan davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

[*Benazir20160828@gmail.com*](mailto:Benazir20160828@gmail.com)

Tel: (+99890)275-65-06

Annotatsiya. Maqolada lirik she'riyat va uning asosiy belgisi bo'lgan kechinma, shuningdek, po'etik timsolning markaziy o'rni tahlil qilinadi. Xosiyat Rustamova ijodida Vatan timsoli va lirik qahramonning ruhiy kechinmalari, shaxsiy va umumiy g'oya uyg'unligi orqali ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga tasavvur va badiiy shartlilikning she'riy ifodadagi o'rni ochib beriladi.

Kalit so'zlar: lirika, kechinma, po'etik timsol, badiiy obraz, Vatan, estetika, lirik qahramon, tasavvur, ruhiy holat, uslub

Аннотация. В статье анализируется лирическая поэзия и её основной элемент - переживание, а также центральная роль поэтического символа. В творчестве Хосият Рустамовой рассматривается образ Родины и внутренние переживания лирического героя, гармония личной и общей идеи. Также раскрывается роль воображения и художественной условности в поэтическом выражении.

Ключевые слова: лирика, переживание, поэтический символ, художественный образ, Родина, эстетика, лирический герой, воображение, внутреннее состояние, стиль



Abstract. The article examines lyrical poetry and its main element - emotional experience, as well as the central role of the poetic symbol. In Khosiyat Rustamova's work, the image of the Motherland and the inner experiences of the lyrical hero are analyzed, highlighting the harmony between personal and collective ideas. The role of imagination and artistic convention in poetic expression is also revealed.

Keywords: lyric, emotional experience, poetic symbol, artistic image, Motherland, aesthetics, lyrical hero, imagination, inner state, style

She'r – shoir qalbidagi orzu-maqсадlar va haqiqiy hayot orasidagi nafis ifoda vositasidir. Lirikaning birinchi belgisi– kechinma esa nafaqat tuyg'u, xayol yoki fikr, o'y, tasavvur va ularning qorishig'i, balki bir vaqtning o'zida ularning hammasidir. Shunday ekan, poetik asarning markazida hamisha kechinma turadi. U shoir badiiy tafakkuri qanchalik yuksak va teran mulohazakor ekanligidan darak beradi.

Epos va dramadan farqli o'laroq lirika voqeylikni tasvirlamaydi, uning uchun voqeylik lirik sub'yekt ruhiy kechinmalarining asosi, ularga turtki beradigan omil sifatidagina ahamiyatlidir¹. Istiqlol davri she'riyatida mazmunda ham shaklda ham ulkan yangilanishlar yuz berdi. Shuningdek lirik qahramon kechinmalarini ifodalashda ham bir-biridan yorqin uslubiy izlanishlar ko'zga tashlanmoqda. Xosiyat Rustamova ijodida lirikasida ham shunday o'ziga xoslikni kuzatish mumkin.

“Badiiy asarda muayyan yo'nalish, keng ma'nodagi uslub katta ahamiyatga ega. Yo'nalish yoki oqim deganda, biz muayyan davr

¹ Quronov D, Adabiyotshunoslik lug'ati/ D. Quronov, Z. Mamajonov, M. Sheraliyeva. – Toshkent: Akademiya, 2013. –408 b. 153-s.

ijodkorlarining umumiy bir g'oyaviy-estetik qarashlar asosida voqelikni in'ikos ettiradigan umumbadiiy uslubni tushunamiz. ”²

Bugungi kunda yaratilayotgan badiiy asarlar, keng ma'noda olib qaraganda, asosan realizm, romantizm va modernizm uslubiga mansub. Lekin bu mansublik nihoyatda shartli. Zero, bugunning ijodkorlari uslub ortidan quvmaydilar. Ular uchun ko'ngil kecninmasi va holat manzarasining tasviriy ifodasi ilk o'rinda turadi.

An'anaviy ritorika va siyqa qofiyalar tizmasidan zerikkan she'rxon Xosiyat Rustamova lirikasidagi o'ziga xoslikni ilk mutoladayoq his etishi tabiiy.

Shoira ijodining mavzu qamrovi kengligi, shakl rang-barangligi va poetik ma'no hamda ijodkor nigohining o'ziga xosligi bilan xarakterlanadi. She'riy vaznlarda an'anaviylik kuzatilsada, tamomila yangicha ifoda yo'sini bilan o'quvchini besarhad poetik olamga yetaklaydi.

Yuqorida ta'kidlaganimiz kabi Xosiyat Rustamova o'zbek she'riyatiga ortda qolgan dolg'ali asrning 90-yillar suronida o'zining bir o'qishda sokin, ammo mazmunan yetuk she'rlari bilan kirib keldi. Munaqqidlar fikricha, XX asr o'zbek she'riyati o'zining sifat darajasiga ko'ra jahonning she'riyati bilan yonma-yon tura oladi. Shundan bo'lsa kerak shoira she'rlari qaysi tilga tarjima qilinmasin, o'sha millat vakillarining qalb mulkiga aylanayotgani quvonarli hodisadir.

Xosiyat Rustamova she'riyatida Vatan mavzusi an'anaviy madhiyaviy ruh doirasidan chiqib, shaxsiy kechinmalar, xotira va ruhiy holatlar bilan uyg'unlashgan holda tasvirlanadi. Shoira uchun Vatan avvalo geografik yoki siyosiy tushuncha emas, balki ma'naviy makon, ruhiy tayanch va ichki ehtiyoj sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois uning lirikasida Vatan obrazi lirik

² Abdulla Sher, Estetik. Nafosat falsafasi, ikkinchi nashr – Toshkent: “O'zbekiston”, 2015. –364 b. 345-s.

qahramonning ichki dunyosi, hayotiy tajribasi va estetik qarashlari bilan birga evolyutsion tarzda rivojlanib boradi.

Ijodining dastlabki bosqichlarida Xosiyat Rustamova she'rlarida Vatan tasviri ko'proq tabiat manzaralari, ona zaminning muqaddasligi va bolalik xotiralari bilan uyg'un holda beriladi. Bu davrda Vatan obrazi sof tuyg'ular, beg'ubor sog'inch va sadoqat ramzi sifatida talqin qilinadi. Ona tuproq, qishloq manzaralari, dalalar, osmon va yo'llar timsolida Vatanga muhabbat hissiy-estetik ohangda ifodalanib, lirik qahramonning shaxsiy xotiralari bilan uyg'unlashadi.

Keyingi bosqichda shoira she'riyatida Vatan mavzusi yanada murakkablashib, ijtimoiy-falsafiy mazmun kasb eta boshlaydi. Bu davr she'rlarida Vatan obrazi nafaqat muhabbat va sog'inch manbai, balki mas'uliyat, burch va dard timsoliga aylanadi. Lirik qahramon Vatanni sevuvchi, ammo uning taqdiriga befarq bo'lmagan, undagi muammolarni yurakdan his etuvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Shoira bunday holatda Vatanni tashqi madh etishdan ko'ra, uni ichki iztirob va ma'naviy tashvishlar orqali ifodalashga intiladi.

Xosiyat Rustamova ijodining yetuk bosqichida Vatan tasviri yanada chuqur ma'naviy va ramziy qatlamlarga ega bo'ladi. Vatanning obrazi ona, taqdir, xotira va ruhiy makon timsollari bilan uyg'unlashib, lirik qahramonning shaxsiy hayoti bilan chambarchas bog'lanadi. Shoira Vatanni inson qalbida yashovchi, undan ajralmas ruhiy hodisa sifatida talqin etadi. Bu bosqichda Vatan mavzusi shaxsiy va umummilliylik uyg'unligida ifodalanib, g'oya yanada umumlashgan falsafiy mazmun kasb etadi.

Uning ijodida "oyog'i yerdan uzilgan" mavzular uchramaydi. Ijodkorning Vatan va Ozodlik, Urush va Tinchlik, Hayot va o'lim, Tabiat va Inson, Mehr va Muhabbat haqidagi betakror she'rlarida garchi mavzu jihatdan

an'anaviylik kuzatilsada, uslub hamda ifoda yo'sinidagi noan'anaviylik o'quvchini hayratlantiradi:

o'zimni ming tilga o'girib chiqdim ,
 Ming bir talvasada
 Jilolandi rashk.
 Umr o'tib ketdi,
 Umr ham o'tdi –
 Men hamon o'zimni qilolmadim kashf³.

O'zini kashf etish istagida qalam tebratayotgan shoira o'zi va ijodiy merosi faqat o'zbek nazmsevarlarigagina emas, balki butun dunyo she'rxonlariga tegishli ekaninini qalban his etadi, shunday baland darajani ushlab turishga bor iste'dod mahoratini sarf qiladi:

Allohning karami cheksiz, bepoyon,
 Yaratgan bir kuni,
 Meni olib tan,
 Boshqa mamlakatda
 qachon bo'lsa ham
 Nashr qilarmikan meni qaytadan?!⁴

Sir-sinoatga to'la dunyoda o'zini umumbashariyatga dahldorligi, ijod sathini kengaytirishga burchli ekanligini anglash va shunga javoban yozishga bel bog'lagan shoira bizga tanish yoki notanish kechinmalarni qog'ozga tushiradi. Ba'zan, yolg'izlik hissi o'rtaganida olamning qaysidir burchagida

³ Rustamova, Xosiyat. Najot: She'rlar. – T.: "Ma'naviyat" nashriyoti, 2003. 69-b.

⁴ Rustamova Xosiyat. Ishg'ol: She'rlar. – T.: Akademasr, 2011. 116-b.

bizdek o'ylayotgan, bizdek dard chekayotgan va bizdek yashayotgan ruhdoshimiz bormi-yo'qligi haqida o'ylab qolamiz.

Shoirning tafakkur olami faqat o'zi yashayotgan jamiyat va davr bilan cheklanib qolmasligi butun borliqni qamrab olishi va oddiy insonlar ilg'amaydigan xodisalarni ilg'ashi bilan o'zgalarnikidan farq qiladi. Zero, badiiy asarning estetik mohiyati ijodkorning yonib turgan dardi vositasida namoyon bo'ladi. Boshqacharoq aytganda, avvalo mavzuning, qolaversa butun asarning, shakl va mazmunning hissiy-axloqiy-falsafiy qudratini inson nafasi, muallifdagi ehtirosli g'oyaviylik belgilab beradi. Ijod jarayonining boshidan oxirigacha ishtirok etadigan ruhiy quvvat, bu – tasavvur. Ijodiy tasavvur, to'g'rirog'i badiiy tasavvur qidiruvchan hissiyot, biror-bir hodisa yoki hodisalarning keskin aniqlika ega bo'lmagan, lekin ayricha tovlanib, ijodkorni o'ziga chaqirib turadigan ehtirosli, mavhum shakli. Tasavvurni ta'riflashning, nima ekanini aniqlashning qiyinligi, uning o'zi aql-idrokni inkor etgani holda, aqlga mos estetik ko'rinish topadi, u, mo'jizaviylik, xayoliylik va karomat unsurlarini o'ziga mujassam etgani holda, aql idrokni shartlilik bilan "aldaydi". Badiiy asarda shartlilik tarzida in'ikos etgan tasavvur mahsuli, u syujetli, badiiy qiyofami, majoziylikning turli ko'rinishlarimi, qanday bo'lmasin, sizni hayotiy reallik sifatida ishontira olmaydi, lekin uni badiiy reallik shaklida qabul qilasiz, undan hayratlanasiz, quvonasiz, qayg'urasiz, xullas, aqlga quloq solmay, unga ishonasiz. Shunday qilib, tasavvur orqali ijodkor sizni bo'lmagan narsaning bo'lganligiga yoki uning shunday bo'lishi kerakligiga ishontiradi⁵. Shu ma'noda, Xosiyat Rustamova she'riyati ham bizlarni o'z xayoliy dunyosiga ishonarli tarzda yetaklaydi. Shoiraning she'rlari mavzu ko'lami juda keng. Vatan haqidagi bitiklari ham shunchalar sokin, samimiy, unda shoirlilik pozitsiyasidan ko'ra chin farzandlik muhabbati hamisha ustun turadi:

⁵ Abdulla Sher, Estetika. /Nafosat falsafasi, ikkinchi nashr – Toshkent: "O'zbekiston", 2015. –364 b. 345-s.

Vatan! Vatan!

Va yana Vatan!

Yo‘qdir buning aslo talqini.

To‘lab bo‘lmas hech narsa bilan

Vatanningda yashash haqqini⁶.

Ko‘p hollarda Vatan mavzusidagi she’rlarda yurtning bog‘u-rog‘i, tog‘u-darasi, buyuk o‘tmishi, ulug‘ bobokalonlari va ularga sodiq bo‘lish ahdi ifodalanadi. Xosiyat Rustamova ijodida esa Vatan shu qadar muqaddas va ilohiyki, shoira uni bebaho tumor kabi yuragining qatida yashiradi. Uning Vatan sha’niga bitilgan she’rlari aksariyat hollarda, yurtdan yiroqda yozilgan ijod mahsulidir:

Yaxshiyam, uzoqda bo‘lsa ham borsan,

Turibman poyingga to‘kilmoqqa shay.

Esim yo‘qligida shu so‘zni aytsam –

Tuyuldi obro‘yim tushadiganday.

Vatan – buyuk! Vatan bu yer sharida,

Shu yoshimga qadar anglamay o‘tdim

Bugun Gollandiya ko‘chalarida

Kelar seni juda quchoqlab o‘pgim⁷.

Vatan so‘zini yuqori pafos bilan aytish, uning suratini yorqin so‘zlar bilan tasvirlashning uddasidan chiqib kelayotgan ijodkorlar nazmidan Xosiyat

⁶ Rustamova Xosiyat. Ishg‘ol: She’rlar – T. :Akademnasr,2011. 122-b.

⁷ O‘sha kitob 122-bet

Rustamovaning she'rlari shunisi bilan farqligi, u Vatan so'zini shunchaki hayqirib aytishni o'ziga ravo bilmaydi:

Vatanni

Shunchaki sevib bo'lmaydi,

Vatanga shunchaki kelib bo'lmaydi.

Har bir giyohiga...

har bir xasiga –

Sevaman, deyolsang o'zbekchasiga...

Tirik tomirlarda

Olov gurlasa,

Yurakdan samoga o'ralsa gulhan.

Ruhimda charsillab

tonglar gullasa –

Ko'ksimda yurakday yashaysan, Vatan!⁸

Shoira ijodida Vatan madhiga bitilgan she'rlar emas, uni pokiza qalb bilan sevishga bo'lgan chorlovlar ko'p. Zero “vatanni sevmoq – iymondandir!” deyilgan hadisi sharifning mazmun-mohiyati Xosiyat Rustamovaning shu mavzudagi she'rlariga bosh g'oya desak, o'rinli aytgan bo'lamiz.

Adabiyot tarixdan ma'lumki, ijod ahli erk va ozodlik uchun hamisha, hamma davrda kurashib kelgan. Fikr erkinligi, ruh ozodligiga qalam sohiblari

⁸ Rustamova, Xosiyat. Najot:/She'rlar/. – T. : “Ma'naviyat” nashriyoti, 2003. 69-b.

hamma vaqt suv va havo kabi zarurat sezganlar. Zotan, ozod soʻzdan ozod sheʼr tugʻiladi:

Osmon har maysadan boshlar soʻroqni,

Zaminning koʻksiga sanchib olar tugʻ.

Yongʻoq yorib chiqar yashil poʻstloqni –

Tuproqdan otilib chiqar har urugʻ⁹.

Hatto maysa ham osmonga intiladi, boʻy choʻzadi, yongʻoq ham yashil poʻstlogʻini yorib chiqadi. Tuproqdan otilib chiqqan har urugʻda ham umidvorlik hissi bor. Ey inson, Sen oʻz qobigʻingni qachon yorib chiqasan?! Qachon nafsing va xudbinliging iskanjasidan qutulasan? Qachon ruhing ozod boʻlib, jismingga bandi boʻlmaysan? Shu kabi savollarga javobni ham shoira sheʼrlarida uchratish mumkin. Binobarin, poeziyaning imkoniyatlari bu kabi mavzularda muloqot qilishga prozadan koʻra kengroq ekani koʻpchilikka ayon.

“Fikr mustaqilligi kishining atrofdagi narsa-hodisalar borasida birovning ogʻziga qarab oʻtirmay, oʻzicha munosabat bildirishida yuz koʻrsatadi. Mustaqil fikr – muayyan voqe-hodisa yuzasidan maʼlum asoslarga tayangan holda kelingan toʻxtamdir, aslida. Har bir odam olam hodisalarini oʻz koʻzi bilan koʻrgani, oʻz ruhiyatiga muvofiq idrok etgani va oʻz intillekti darajasida izohlagani uchun ham u haqda oʻziga xos toʻxtamga keladi. Mustaqil fikr oʻzgalarning qarashlariga oʻxshamasligi bilan ajralib turadi”¹⁰.

Jahonning eng ilgʻor tillariga tarjima qilingan shoira yoniq sheʼrlari maishiy gʻamlardan emas, balki umumbashariy dardlardan iborat boʻlgan qalb

⁹ Rustamova Xosiyat. Ishgʻol: Sheʼrlar – T. :Akademnasr,2011. 122-b. 5-b.

¹⁰ Қозокбой Йўлдошев. “Фикр парвоз истајди”. Тафаккур журнали. Тошкент: 2015 й. 3-сон. В-4

hayqiriqlaridir. Shu o‘rinda, buyuk olmon faylasufi, dunyo adabiyoti tamadduniga beqiyos hissa qo‘shgan mutafakkir Iogang Volfgang Gyotedan yana bir “Har bir ijodkorda jasoratning kurtagi bo‘ladi, uningsiz hech bir iste’dodni tasavvur qilib bo‘lmaydi” degan yana bir purma’no hikmatni aytish joizdir. Darhaqiqat, ijod ahli erk va ozodlik uchun hamma davrda goh oshkora, goh pinhona kurashib yashaganlar.

Tahlikali dunyomizda yurt farovonligi, millatlar hamjihatligini ko‘rolmaydigan, yer yuzida sodir bo‘layotgan notinchliklardan manfaatdor bo‘lgan insonlar topiladi. Xosiyat Rustamova shunday qabih va manfur kimsalarga nisbatan nafratini yashirmaydi:

Otilib boryapman Dengiz qa’riga,
 Xas va ko‘piklarni surib har tomon.
 Umrinning beo‘lchov sarhadlarida
 Qayiqalar chayqalsin osuda, ravon.
 To‘lqinlar dahshati bermasin xalal,
 Bo‘ron, sel bir kelib-ketaversin shod.
 Hayot o‘z yo‘liga tushsin loaqal-
 Mayda baliqlar ham yashasin ozod¹¹.

Tan sog‘ligi, yurt omonligi, ona yerning chayqalmasdan turishi, notinch olamda Tinchlikning barqaror bo‘lishi XXI asrning global muammolaridan sanalmoqda. Xosiyat Rustamova “Osmondagi uy” nomli ilk to‘plamida “Sizga gullar taqdim etolmasman, yo‘q!” deb nomlangan balladasida Urush mavzusiga to‘xtalgan. Hajman kichkina bo‘lsada bu doston orqali Afg‘on urushining dahshatli asoratlarini tasvirlashga uringan shoira, birgina oilasi

¹¹ Rustamova Xosiyat. Ishg‘ol: She’rlar – T.: Akademnasr, 2011. 136-b.

misolida urushning beshafqatligini, undagi yo‘qotishlar jarohatining nechog‘li og‘riqli ekanini ifodalaydi:

Avtomat, tanklarni

o‘ynamang deysiz

o‘yinchoq o‘ynasa

Murg‘ak bolalar.

Bilaman ko‘zingiz

oldiga kelar

Avtomat tanklarga to‘lgan

dalalar.

“Sizga gullar taqdim etolmasman, yo‘q!”¹²

Zero, hech qanday urush qurbonsiz bo‘lmaydi. Uning asorati yillar, balki asrlar davomida insonlar taqdirida bitmas jarohat singari iz qoldiradi. Quyidagi hayotiy bitiklarda II jahon urushining qaqshatqich zarbasi davrlar o‘tsada ta’sirchan nabira xayolida mash’um xotiralarning yangilayveradi:

Besh yilmi, on yil oldin,

Ko‘rib eski albomni.

Suratin topib oldim-

Urush ko‘rgan bobomni.

Kechagidek esimda-

Hamma tomon qor edi.

¹² Osmondagi uy” to‘plami, 1997 yil. 30-bet

Eh, men ko‘rgan rasmda,

Oyoq-qo‘li bor edi¹³.

Sovuq qurolning sovuq qilmishi nechalar yostig‘ini quritdi. Bu ro‘yi zaminda eng muqaddas sanalgan insonni, inson u yoqda tursin, hatto kichkina qumursqani ham hayotiga zomin bo‘lishga yaratgandan o‘zganing haqqi yo‘q:

Ne ofat tutashib bormoqda jonga,

Halovat yo‘qolgan.

Vijdon endi yo‘q.

Kimnidir ko‘ksini olar nishonga-

Beshafqat miltiqdan uchayotgan o‘q¹⁴.

Beshafqat miltiqdan uchayotgan o‘qning qilmishi haqida yozarkan, Xosiyat Rustamova urushda qo‘l va oyog‘ini boy bergan bobosining xotirasidan bir dam bo‘lsada ayirmaydi. Germaniyaga safari vaqtida yozgan “Vatan” deb nomlanuvchi turkum she‘rlarida ham bu mavzuga juda o‘rinli tarzda qaytadi:

Men azal ko‘nglimda saqlayman kin,

Ammo tunlar menga o‘zin oqlaydi.

Bilsam bo‘larmikan,

Muhtasham Berlin

Qo‘l va oyoqlarni qayda saqlaydi?!

Shahar atrofimda yuribdi yelib,

¹³ Rustamova Xosiyat. Avgust: She‘rlar – T.: Yangi asr avlodi, 2008. 35- b.

¹⁴ Rustamova Xosiyat. Rido: She‘rlar – T. : Yangi asr avlodi, 2004. 47-b.

Bobomni eslayman.

eslayman yurtni.

Hayot ekan – Berlin bugunga kelib–

Mening oyogimni ko‘ziga surtdi¹⁵.

Aslida, urush – hech qaysi millat oqlamaydigan, xohlamaydigan dahshatli illat. U bir hovuch g‘alamis insonlarning manfaatlari uchun xizmat qiladigan, mushfiq xalqning boshiga musibatlar soladigan og‘ir ko‘rgulik. Xosiyat Rustamovaning bisotida tinchlik mavzusida bir-birini takrorlamaydigan she‘rlar uchraydi. Ijodkor kurrai zaminda ro‘y berayotgan har qanday urushga ulkan qalbi bilan isyon qiladi. Ayniqsa, shoiraning bu mavzudagi she‘rlari gultoji “Ismi Lala edi u qizning” deb nomlangan dostoni sanaladi. Qardosh Ozarboyjonga bag‘ishlangan ushbu dostonida shoira Ozar millati timsolida “*o‘zi ham ozarlar kabi chiroyli, Qoshlari qayrilgan, ko‘zlari xumor. Ustida ko‘ylagi qirmizi shoyi, Sochlari parishon, lablari gulnor!*” Lala ismli qizni tasvirlaydi. Dostonda uzoq yillardan buyon tinchimaydigan tog‘li Qorabog‘ mojarosining 2020-yili yana qaytadan ko‘tarilishi va bu urushning mash‘um asoratlari qalamga olinadi. Ijodkor ko‘nglini larzaga solgan qabih urush Lala obrazida ko‘zida yosh qalqib turgan dunyoni jonlantiradi.

Shoiraning “Ishg‘ol” to‘plamidan o‘rin olgan bir she‘rida “*Dunyo mening uchun – qizil ko‘ylakli, Eti suyagiga yopishgan singlim*” deya yozgan edi. Ne ajabki, bir necha yillardan so‘ng kuylagi qirmizi shoyi dunyo – Lala ismi bilan shoiraning asosiy qahramoniga aylanadi:

Ozar tuprog‘ida daraxtlar g‘amgin,

Shamollar dod solar chopib har yonga.

¹⁵ Rustamova Xosiyat. Ishg‘ol: She‘rlar – T.: Akademnasr, 2011. 120-b.

Hayot, sen ozgina qil unga rahm,

Yuragini qaytar Ozarboyjonga!

Xosiyat Rustamova Qorabog‘ni – Ozarbayjonning yuragi deya e‘tirof etadi. “Yuragini qaytar Ozarbayjonga!” degan hayqiriq bilan insoniyatni rahm-shafqatga chorlaydi. Balki bu – bashariyatning boqiy bayotidir?! Kulishni unutgan dunyoga ya’ni Lalaga murojaat etarkan, o‘quvchi ko‘z o‘ngida ona kabi Ozarbayjonning bag‘ridagi juft-juft qabrlar manzarasi namoyon bo‘ladi.

Hozir ham uzoqdan turadi qarab,

Qarayman dunyoga – hovuchlab jonni.

Men esa yuzini silab, erkalab

Bolamday o‘paman Ozarboyjonni!

So‘ng esa tushundim –

Ko‘p yillardan so‘ng

Boshimga kelganda umidsiz yillar.

Ko‘tarib turibdi ikki dunyoni –

Bakudagi o‘sha, juft-juft qabrlar.

Mazkur she‘riy parcha mazmunan ixcham bo‘lsa-da, undagi obrazlar tizimi va ma’no qatlamlari nihoyatda keng va terandir. She’rda lirik qahramonning Vatanga munosabati oddiy hissiy e‘tirofdan boshlab, tarixiy-falsafiy anglash darajasigacha bosqichma-bosqich rivojlanadi. Eng muhim jihat shundaki, shoira fikrni takrorlamasdan, har bir obrazni yangi semantik yuk bilan boyitib boradi.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Quronov D, Adabiyotshunoslik lug‘ati/ D. Quronov, Z. Mamajonov, M. Sheraliyeva. – Toshkent: Akademnashr, 2013. –408 b. 153-s.
2. Abdulla Sher, Estetik. Nafosat falsafasi, ikkinchi nashr – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2015. –364 b. 345-s.
3. Rustamova, Xosiyat. Najot: She‘rlar. – T.: “Ma‘naviyat” nashriyoti, 2003. 69-b.
4. Rustamova Xosiyat. Ishg‘ol: She‘rlar. – T.: Akademnasr, 2011. 116-b.
5. Abdulla Sher, Estetika. /Nafosat falsafasi, ikkinchi nashr – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2015. –364 b. 345-s.
6. Қозокбой Йўлдошев. “Фикр парвоз истаиди”. Тафаккур журнали. Тошкент: 2015 й. 3-сон. В-4
7. Rustamova Xosiyat. Avgust: She‘rlar – T.: Yangi asr avlodi, 2008. 35- b.
8. Rustamova Xosiyat. Rido: She‘rlar – T. : Yangi asr avlodi,2004. 47-b.

